

REALIZM VA ABSTRAKTSIONIZM: IKKI QARAMA-QARSHI YO‘NALISH TAHLILI

Guliston Davlat universiteti

Sanatshunoslik fakulteti oqituvchisi

Qarshiboyeva Dilafruz

Guliston Davlat Universiteti Rangtasvir yo‘nalishi talabasi

Boqiyeva Tahmina

Annotatsiya: Realizm va abstraktsionizm san’atdagi ikki muhim yo‘nalish bo‘lib, ular tasvirlash uslubi va maqsadida keskin farqlanadi. Realizm san’atda haqiqatni aniq aks ettirishga intiladi, tafsilotlar va voqelikni maksimal darajada haqqoniy tasvirlashni maqsad qiladi. Abstraktsionizm esa shakllar va aniq tasvirlardan voz kechib, rang, chiziq va kompozitsiya orqali tuyg‘ularni ifodalashga e’tibor qaratadi. Bu ikki yo‘nalish san’at tarixida muhim o‘rin egallab, ijodkorlarga turli uslub va yondashuvlarni taqdim etdi.

Аннотация: Реализм и абстракционизм — два диаметрально противоположных направления в искусстве, основанных на разных концепциях восприятия действительности. Реализм стремится к точному изображению окружающего мира, передаче деталей и правдивости сцен, ориентируясь на объективность и достоверность. Абстракционизм, напротив, отвергает необходимость узнаваемых форм, фокусируясь на эмоциях, цвете, ритме и динамике линий. Это направление позволяет художнику выражать внутренние переживания и абстрактные идеи, выходя за рамки традиционных представлений. Оба направления сыграли ключевую роль в развитии искусства, формируя разные подходы к творческому самовыражению.

Annotation: Realism and abstractionism represent two contrasting artistic directions, each with a unique approach to depiction and expression. Realism aims to

convey reality with precision, emphasizing accuracy, details, and the truthful representation of objects and scenes. It focuses on an objective portrayal of the world. Conversely, abstractionism rejects literal representation and relies on colors, forms, and lines to express emotions and concepts, offering artists a more subjective approach to artistic expression. These two movements have significantly shaped the art world, providing diverse perspectives on creativity and representation.

Kalit soʻzlar: realizm, abstraksionizm, sanʼat, estetika, shakl, rang, chiziq, perspektiva, tuygʻular, ifoda, haqiqat, abstrakt tafakkur, rassom .

Keywords: realism, abstractionism, art, aesthetics, form, color, line, perspective, emotions, expression, authenticity, abstract thinking, artist

ключевые слова: реализм, абстракционизм, искусство, эстетика, форма, цвет, линия, перспектива, эмоции, выражение, достоверность, абстрактное мышление, художник

Realizm — voqelikni, mavjud borliqni badiiy adabiyot va sanʼat (tasviriy sanʼat, teatr, musiqa va boshqalar)ning ifoda vositalari orqali oʻziga oʻxshash shakllarda haqqoniy aks ettirish. Adabiyot da realizm — hayotni voqelikdagi voqea va hodisalarga muvofiq ravishda obrazlar orqali aks ettirish metodi. Realizm adabiyotning oʻzini va tashqi olamni bilish vositasi sifatidagi ahamiyatidan kelib chiqqan holda voqelikni barcha ziddiyatlari bilan qamrab olishga intiladi, yozuvchiga hayotning barcha tomonlarini cheklanmagan holda aks ettirish imkoniyatini beradi. Realizm metodiga asoslangan adabiyotda hayot haqiqatini tasvirlash tamoyili ustuvor ahamiyatga ega. Binobarin, realizm adabiyoti jahon adabiyoti taraqqiyotidagi eng yuksak bosqich hisoblanadi. Realizm keng maʼnoda Gomer va Dante, Shekspir va Rasin, Firdavsiy va Navoiy ijodiga ham xos xususiyat, zero, hayotiylik va samimiylik bu mumtoz ijodkorlarning asarlarida katta mahorat bilan ifoda etilgan. Ammo realizm adabiy metod yoki adabiy yoʻnalish sifatida yozuvchidan voqelikni hayotiy va haqqoniy aks ettirish tamoyiliga izchil rioya etishni, inson va tashqi olamni ongli ravishda oʻrganish va bilishni taqozo etadi. Shu maʼnoda jahon adabiyoti 19-asrga kelibgina oʻz taraqqiyotining realizm metodiga asoslangan yangi bosqichiga

erishdi. Realizmning metod sifatida paydo bo'lish vaqti masalasida adabiyotshunoslikda turlicha qarashlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar hayotni realistik tasvirlash usullari qadim zamonlardan beri davom etib kelayotgani va bu usullarning turli bosqichlarni bosib o'tganini nazarda tutib, antik realizm, Uyg'onish davri realizmi, ma'rifatparvarlik realizmi va sotsialistik realizm tushunchalarining mavjudligi haqidagi qarashlarni olg'a surib keladilar. Boshqa tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, realizm ijodiy metod sifatida 18-asrda oilaviymaishiy va ijtimoiymaishiy romanlar yaratilishi bilan bir vaqtda maydonga kelgan. Realizmning 19-asr 30-yillarida Yevropa adabiyotida shakllana boshlaganligi haqidagi fikr aksar adabiyotshunoslar tomonidan qabul qilingan bo'lib, bu fikr Yevropa xalqlari adabiyotlarida voqelikni haqqoniy tasvirlash tamoyili yuksak ijtimoiytahliliy shakllarda keng va teran ifodalanganligi bilan tasdiqlanadi. Abstraksionizm lotincha: *abstractio* — mavhumlik, noma'lumlik, uzoqlashish) — 20-asrdan avval avval tasviriy san'atda paydo bo'lib, keyin adabiyotga o'z ta'sirini o'tkazgan oqim. Namoyandalari — Charlz Novard, Styuoriy Devis, Krauford, Ret-ner, Morris, M. Seyfer, P. Mondri-an, Paulo Klee va boshqalar san'at borliqning emas, san'atkor his-tuyg'ularining in'-ikosi degan g'oyani ilgari surishgan. Bu oqimdagilar ijodida his, tuyg'u, xayol borliqdan uzilgan chiziqlar, geometrik shakllarda namoyon bo'ladi, shakl va mazmun bir-biriga singib ketadi, ya'ni an'anaviy tushunchadagi mazmun va shakl o'z mohiyatini yo'qotadi. A.ning ta'siri fransuz she'riyatida ayniqsa sezilarlidir. Abstraksionizm badiiy adabiyotda „antiroman“ va boshqa ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda. Abstraksionizm oqimi namoyandalari „voqelikni inkor etish evaziga ruhiy voqelik“ yaratmoqchi bo'ladilar. 50-yillarda Abstraksionizm san'atning „Belgilar san'ati“, „iyegrogliflar“, „kalligrafiya“ kabi ichki yo'nalishlari paydo bo'ldi. A. san'atga ma'lum bir uslubiy yangilik olib kelgan bo'lsada, taniqli mutafakkir va san'atkorlarning tanqidiga uchradi. Xususan, A. Kamyu voqelikdan mutlaq uzilgan asarning faqat voqelikka yopishib olgan asardan farqi yo'q deb qaraydi. Kamyuning fikricha, san'at voqelik va san'atkor his-tuyg'ulari o'rtasidagi erkin va tabiiy uyg'unlashuvdan paydo bo'ladi. Lekin A. san'at va uning tasvir usullari haqidagi tasavvurni boyitgani uchun ham qimmatlidir.

Xulosa: Realizm va abstraksionizm san'atning ikki qarama-qarshi yo'nalishi bo'lib, biri haqiqatni aniq tasvirlashga intilsa, ikkinchisi hissiyot va abstrakt g'oyalarni

shakl, rang va chiziqlar orqali ifodalaydi. Realizm hayotning to'liq va haqqoniy aksini yaratishga harakat qiladi, voqelikni detallar bilan berishga e'tibor qaratadi. Abstraktsionizm esa an'anaviy tasvirlashdan voz kechib, san'atni ichki kechinmalar va tuyg'ularni aks ettirish vositasi sifatida ko'radi. Bu ikki yo'nalish san'at tarixida muhim o'rin egallaydi, ijodkorlarga turli yondashuvlarni taqdim etadi va tasviriy ifodalash imkoniyatlarini kengaytiradi. Ularning o'zaro ta'siri va farqlari san'atni yanada boyitib, yangi ijodiy ufqlarni ochishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Realistic Abstracts: Painting abstracts based on what you see – Kees van Aalst
2. Realism and Abstraction – Michael Peter Bolus (Aesthetics and the Cinematic Narrative)
3. Objectivity, Realism, and Proof – Francesca Boccuni, Andrea Sereni
4. Bohodirovna, K. D. (2024). TASVIRIY SAN'ATDA O'ZBEK MILLIY O'YINLARI KOMPOZITSIYASINING YORITILISHI VA UNING TARBIYAVIY AHAMIYATI. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 7(12), 34-37.
5. Bohodirovna, K. D. (2024). TASVIRIY SAN'AT VA FALSAFA O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK HAMDA ULARDAGI ESTETIK TUSHUNCHALARNING INSONIYAT MADANIYATIGA TA'SIRI. Научный Фокус, 2(19), 356-358.
6. Boxodirovna, K. D. (2025). KOMPOZITSIYANING O'ZIGA XOS QONUNIYATLARI VA ULARNING AHAMIYATI. MASTERS, 3(2), 137-141.
7. Boxodirovna, K. D., & Bunyodovna, B. T. (2025). PUANTILIZM VA ABSTRAKTSIYA USLUBLARIDA" BAHOR IFORI" MAVZUSI. MASTERS, 3(2), 142-146.

8. Boxodirovna, K. D. (2025). TASVIRIY SAN'ATDA INSON QIYOFASIDAN CHIZGILARNI BAJARISH. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 4(43), 144-148.

9. Boxodirovna, K. D. (2025). KOMPOZITSIYA FANINI O'QITISHDAGI INNOVATSION USULLARINING AHAMIYATI. YOSH OLIMLAR, MAGISTR VA IQTIDORLI TALABALARNING ILMIY FAOLIYATINI OSHIRISHDA ULARGA QARATILGAN KREATIV G'OYALAR, YECHIM VA TAKLIFLAR, 3(26), 35-39.